

YDK: 619:639.34:615:615

AKVARIUM BALIQLARI XILODINELLYOZ KASALLIGINI FURAZALIDON, FURATSILLIN HAMDA TUZLI ERITMALAR BILAN DAVOLASH USULLARI

Satiyeva F.R. - magistr

Xushnazarova M.I. - magist

Kurbanov F.E. - ilmiy rahbar, v.f.f.d.

Yuldoshev X.T. – ilmiy maslahatchi, b.f.f.d.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Baliq kasalliklari orasida tez - tez uchrab turuvchi Xilodinellyoz kasalligi asosan qish faslidan keyin organizmi zaiflashgan baliqlarda ko'p uchraydi. Ushbu maqolada bugungi kunda baliqchilikda keng tarqalayotgan Xilodinellyoz kasalligining qisqacha mazmuni va kasallikka qarshi furazalidon, furatsillin, tuzli eritmalarini qo'llash orqali ishlab chiqilgan samarali davolash haqida qisqacha keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. *xilodinellyoz, chilodinella, osh tuzi, furatsillin eritmasi, furazalidon eritmasi, tilyapiya, protozoy, antiparazitar, bakteritsid, immun tizim.*

Kirish. Chorvachilik sohasi aholi o'rtasida keng tarqalgan mukammal sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa so'nggi yillarda baliq iste'moliga bo'lgan talabning oshishi baliqchilik tarmog'ining yanada rivojlanishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.01.2022 yildagi PQ-83-son "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish" hamda 18.08.2023 yildagi PQ-281-son "Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari doirasida baliq mahsulotlari turlarini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirish hamda baliqchilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berildi. Bunday tadbirlarni kengaytirish maqsadida aholi o'rtasida baliqchilik bilan shug'ullanadigan xonadonlarga keng imkoniyatlar yaratish qulay va zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish yo'lga qo'yildi va hozirgi kunga qadar turli xo'jaliklarda bu ko'rsatkich oshib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Baliq aholi o'rtasida nafaqat oziq-ovqat, balki bir qancha kasalliklarga davo bo'luvchi ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan, shuningdek akvariumlarda boqiladigan ko'ngilochar tur hisoblanadi. Baliqning qiymati ko'p miqdorda to'liq oqsillar mavjudligi bilan belgilanadi. Baliqdan qimmatli dorivor, ozuqaviy va texnik mahsulotlar olinadi. Infuzoriyalar tomonidan keltirib chiqaradigan kasalliklar baliqlarning mahsuldorligiga katta ziyon keltiradi va iqtisodiy zarar yetkazadi. Akvarium va hovuz baliqlarida uchraydigan protozoy kasalliklardan biri Xilodinellyoz kasalligi bo'lib, baliqlarning teri va jabralarining jarohatlanish kasalligidir. Akvarium baliqlarida ushbu kasallik tezlikda ya'ni, 1-2 kun ichida sodir bo'lib salbiy ta'sir ko'rsatishi oqibatida mahsuldorligi pasayishiga olib keladi.

Tadqiqot mazmuni va olingan natijalar. Xilodinellyoz kasalligini davolashda furatsillin va furazalidon kabi antiseptik va antiparazitar dori vositalarini qo'llash yaxshi

natija berishi tajriba davomida kuzatildi. Bu dorilar baliqlarda parazitlarni yo'qotishga yordam beradi. Tadqiqot davomida quyidagi davolash sxemalari va miqdorlari ishlab chiqildi.

1. Furatsillin bilan davolash

Furatsillin — bakteriyalarga qarshi vosita bo'lib, baliqlarda infektsiyalangan teri va shikastlangan joylarga samarali ta'sir qiladi.

Miqdori: 1 litr suvga 10 mg furatsillin qo'shiladi. Furatsillinni suvga qo'shgandan so'ng, suvni har kuni 1-2 marta almashtirib turish tavsiya etiladi. Davolash kursi odatda 5-7 kunni tashkil etdi.

2. Furazalidon bilan davolash

Furazalidon — antiparazitar va bakteritsid xususiyatlarga ega dori bo'lib, xilodinella parazitlari ustidan samarali ta'sir qiladi.

Miqdori: 1 litr suvga 5-10 mg furazalidon qo'shiladi. Furazalidonni qo'shgandan keyin suvni har kuni 1-2 marta almashtirish kerak. Furazalidon bilan davolash kursi ham odatda 5-7 kun davom etadi.

Tuzli eritmalar Xilodinellyoz kasalligini keltirib chiqaradigan *chilodonella* parazitlariga ta'sir ko'rsatishda bir nechta mexanizmlarga asoslanishi kuzatildi. Tuzli eritmalar baliqlarning osmotik balansini o'zgartiradi, bu esa parazitlarning yashash sharoitlarini yomonlashtiradi. Tuzning yuqori konsentratsiyasi parazitning suvsizlanishiga olib keladi, shuning uchun ular tezda o'lib ketishi mumkin. Bu tuzning baliqlarda parazitlarni yo'q qilishdagi asosiy mexanizmidir. Bundan tashqari tuzli eritmalar ba'zi hollarda baliqlarning terisidagi parazitlarni va boshqa mikroorganizmlarni kamaytirishga yordam beradi. Tuzli eritmalar baliqlarning immun tizimini qo'llab-quvvatlashi mumkinligi aytib o'tilgan, bu esa ularni parazitlarga qarshi kuchliroq himoya qilish imkonini beradi.

Natriy xlorid (NaCl): Osh tuzi bilan eritma: 1 litr suvga 1-3 gramm oddiy osh tuzi qo'shiladi, ammo bu miqdor baliqlarning turiga qarab o'zgarishi mumkin.

Davo davomiyligi: Davolash kursi odatda 3-5 kun davom etdi, lekin baliqlarning holatiga qarab bu muddatni uzaytirish mumkin.

Umumiy 20 bosh baliq zararlantirildi. 10 bosh baliq tuzli eritmalar bilan davolandi. 10 bosh baliq esa furatsillin va furazalidon eritmaları bilan davolandi. Tekshirish natijalariga ko'ra, Xilodinellyoz bilan zararlangan baliqlarni osh tuzining 0,005% li eritmasi bilan 2-3 sutka davomida davolanganda, zararlangan baliqlarning 2 tasi nobud bo'ldi, qolganlari davolashga erishildi. Qolgan 10 bosh baliqdan 5tasi furatsillin eritmasi bilan davolanib yaxshi natijaga erishildi. 5ta baliq furazalidon eritmasi bilan davolanganda 2tasi nobud bo'ldi.

Xulosalar

Natijalarga ko'ra, tuzli eritmalar, furatsillin va furazalidon eritmaları bilan davolanganda furatsillin hamda tuzli eritma bilan davolangan baliqlarda yaxshi natijaga erishildi, osh tuzi eritmasining ta'sir doirasi 85-90%, furatsillin eritmasi bilan davolash 85% hamda furazalidon eritmasi bilan davolash 70% etib belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haqberdiyev, P. S., Qurbonov, F. I., & Qarshiyeva, B. (2018). Baliq va asalari kasalliklari. *O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand*, 4, 101-105.

2. Muhammadiyev, Z. N., & Qurbonov, F. I. (2022). Самарқанд Сунъий Сув Ҳавзаларида Яшовчи Карпсимон Балиқларнинг Гельминтофаунаси Ва Уларнинг Экологик Хусусиятлари. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(1), 18-22.
3. Kurbanov, F. E. (2022). Baliqlar Saprolegniozining Epizootologiyasi Va Qarshi Kurash Chora-Tadbirlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 152-158.
4. Sh, A. A., Babamuratova, N. B., & Qurbonov, F. I. (2022). Baliqlarda Xilodinillioz, Trixodinioz, Krasnuxaning Aralash Oqimda Kechishi. *Agrobiotexnologiya Va Veterinariya Tibbiyoti Ilmiy Jurnali*, 45-48.
5. Yunusov, K., Kurbanov, F., Yuldashev, X., Asomiddinov, U., & Xolova, U. (2024). Diagnosis of saprolegniosis and protozoa of fish and veterinary and sanitary assessment of their meat (Uzbekistan). In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01024). EDP Sciences.
6. Сатторов, Д., Курбанов, Ф., & Салимов, И. (2022). Грибные заболевания рыб. Сапролегниоз. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 137-141.
7. Сатторов, Д., Курбанов, Ф., & Салимов, И. (2022). Baliqlarning zamburug „li kasalliklari. *Saprolegnioz. Perspektivny razvitiya veterinarnoy nauki i ee rol v obespechenii pishchevoy bezopasnosti*, 1(2), 137-141.
8. Sattorov, J. M., & Sh, A. A. (2022). Baliqchilik Xo 'Jaliklarida Saprolegnioz Kasalligining Tarqalish Yo 'Llari Va Profilaktikasi. *Agrobiotexnologiya Va Veterinariya Tibbiyoti Ilmiy Jurnali*, 377-381.
9. Ilhomovna, K. F. E. K. M., & Ziyodulloevich, K. Z. (2023). Development of non-infectious bronchonecrosis in fish. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 465-468.
10. Ilhomovna, K. F. E. K. M., & Ziyodulloevich, M. O. I. K. Z. (2023). Prevention of fish asphysics measures. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 469-472.
11. Курбанов, Ф. И., Саттаров, Д. М., & Хушназарова, М. И. (2023). Меры лечения Сапролегниозам и Триходиномом. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 40-45.
12. Enatillayevich, K. F., Madaminovich, S. J., & Sheraliyevich, S. D. (2023). BALIQLAR SAPROLEGNIOZIGA QARSHI KURASH TADBIRLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 14-20.
13. Enatillayevich, K. F., Madaminovich, S. J., & Ilxomovna, X. M. (2023). BALIQLARDA TRIXODINOZINING DAVOLASH USULLARI VA OLDINI OLIISH CHORALARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 21-27.
14. Курбанов, Ф., Хушназарова, М., & Саттаров, Д. (2023). Методы лечения и профилактики триходиномоза рыб меры. *in Library*, 4(4), 21-26.
15. Kurbanov, F. I., Kubaev, Z., Mamarasulova, D., Khushnazarova, M., & Ollaberganova, R. (2024). MEASURES TO PREVENT THE SPREAD AND

PREVENTION OF NON-INFECTIOUS BRONCHIONECROSIS OF FISH. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(4), 14-20.

16. Yunusov, K., Kurbanov, F., Yuldashev, X., Achilov, O., & Ergashev, N. (2024). Measures to prevent the spread of non-infected bronchionecrosis, protozoan and lerniosis in fish. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01002). EDP Sciences.

17. Rasulov, U. I., Asomiddinov, U. M., & Kurbanov, F. I. (2024). BALIQLARNING SAPRALIGNIOZIDA GO 'SHTINING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(29), 212-216.

18. Yunusov, X. B., Kurbanov, F. I., & Xushnazarova, M. I. (2024). SAMARQAND VILOYATI SUV HAVZALARIDA KARPSIMON BALIQLAR SAPROLIGNIOZ VA PROTOZOOZINING TARQALISHIGA TA'SIR QILUVCHI SUVNING BIOEKOLOGIK OMILLARI. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(29), 314-320.

19. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQLAR QONINING SOLISHTIRMA KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH USULLARI. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

20. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQCHILIK SOHASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING SAMARALI YECHIMI. *Veterinariya meditsinasi Maxsus son*.

21. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQLAR SESTODOZLARINI TARQALISH MONITORINGI. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

22. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQLARNING OZ UQALARDAN ZAHARLANISHLARINI DIAGNOSTIKA QILISH. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

23. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQLARNING ASFIKSIYASINI OLDINI OLIH. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

24. ENATILLAYEVICH, K. (2023). SUN'IY SUV HAVZALARIDA BALIQLAR LERNIOZINI DAVOLASHDA QO'LLANILGAN PREPARATLAR. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

25. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQLARNING OZUQALARDAN ZAHARLANISHLARINI DIAGNOSTIKASI VA OLDINI OLIH CHORATADBIRLARI. *Veterinariya meditsinasi Maxsus son*.

26. ENATILLAYEVICH, K. (2023). BALIQCHILIK SOHASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

27. ENATILLAYEVICH, K. (2023). KARP BALIQLARIDA SAPROLEGNIOZ VA TRIKODINOZNI DAVOLASH. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.

28. ENATILLAYEVICH, K. (2023). YUQUMSIY BRONXIONEKROZNING BALIQLARDA RIVOJLANISH SABABLARINI ANIQLASH. *Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son*.